

**GEOMETRIYA KURSIDA O‘QUVCHILARNING O‘QUV FAOLIYATINI  
TASHKIL ETISHNING METODIK ASOSLARI****Rahmonov Asadbek Umidbek o‘g‘li***Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-bosqich magistranti,**tel: +998503010085,**e-mail : [asadbektreiding0085@gmail.com](mailto:asadbektreiding0085@gmail.com)*

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada geometriya kursida o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etishning metodik asoslari keltrilgan. Shu bilan birga maktab geometriya kursining bunday qurilishining ham ijobiy, ham salbiy tomonlari asosida geometriya fanini o‘qitishdan asosiy maqsadni mazmuni o‘ziga xos jixatlari bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlari:** *geometriya, matematik ta‘lim, o‘quv faoliyati, o‘quvchi, maqsad, aksiomatik qirish, mazmun.*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье представлены методические основы организации учебной деятельности учащихся в курсе геометрии. Вместе с тем на основе как положительных, так и отрицательных сторон подобного построения школьного курса геометрии изложены содержание и специфические аспекты основной цели преподавания геометрии.*

**Ключевые слова:** *геометрия, математическое образование, учебная деятельность, учащийся, цель, аксиоматическое построение, содержание.*

**ABSTRACT:** *This article presents the methodological foundations for organizing students' learning activities in a geometry course. Along with this, based on both the positive and negative aspects of such a structure for the school geometry course, the content and specific features of the primary goal of teaching geometry are described.*

**Keywords:** *geometry, mathematical education, learning activities, student, goal, axiomatic construction, content.*

Ma‘lumki, geometriya fanini o‘qitishda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik litseylarda ham ko‘pgina qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati o‘quvchilarda geometrik tayyorgarlikning etarli darajada emasligi sababli yuzaga kelmoqda. Bu esa o‘z o‘zidan geometriya fanini o‘qitishga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirishga zaruriyat tug‘diradi.

Geometriya fanidan o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish asosida ularning geometrik bilimlarni yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari, o‘quvchilarning geometrik tayyorgarligini oshirishga yordam beradi. Bunda geometriya fanini o‘qitishga jarayonida

bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beruvchi qulay texnologiyalar majmuasidan foydalanish va o‘quv jarayonidagi yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish yo‘llari taklif etiladi [1].

Bundan tashqari o‘quvchining bilim olish, o‘quv va ko‘nikmalarga ega bo‘lish borasidagi barcha say-harakati uning faolligini ko‘rsatsa, o‘qituvchi rahbarligi ostida yoki berilgan topshiriq va vazifalarni bajarish mobaynidagi mehnatini mustaqil bajarilgan ish deb e‘tirof etish lozim. Mustaqil bajariladigan ishlarning turlari, shakl va mazmuni xilma-xil bo‘lishini nazarda tutgan holda, ularning tashkiliy shakllarini uchga, ya‘ni individual, guruhviy va ommaviy tarzda bajariladigan xillarga ajratish mumkin. Qay sharoit va qanday vaziyatlarda bajarilishiga qarab esa, barcha mustaqil ishlarni darsdagi va darsdan tashqari mustaqil ishlarga ajratish mumkin. Shu bilan birga sinfdagi barcha o‘quvchini mustaqil ishlashga safarbar qilishning sinalgan ikki yo‘li–dars va uy vazifalarini bajarish bilan bog‘liqdir.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan matematika fanining bevosita davomi keyingi bosqichda 5-6 sinflarda davom ettiriladi. Bu bosqichda matematika fanining bir qismi sifatida o‘qitiladigan geometriya kursining maqsad va vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

-ushbu bosqichda o‘rganiladigan geometrik materiallar o‘quvchilarning umumiy geometrik tasavvurini rivojlantirishga;

-o‘quvchilarda kelajakda geometriya fanini sistemali o‘rganishga tayyorlashga;

-atrof olamni o‘rganishda geometriya fanining rolini ko‘ra bilishga o‘rgatishdan iborat [3]

6-9 sinf o‘quvchilarga matematik ta‘lim berishda asosiy bosqich hisoblanib bu bosqich uchun ko‘pgina darsliklar chop etilmoqda. Bu bosqichda o‘qitiladigan geometriya kursi boshlang‘ich sinflarda egallangan geometrik bilimlarga tayangan holda umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagi o‘quv standartlarida ko‘zda tutilgan asosiy matematik bilim va ko‘nikmalarni egallashni ta‘minlashi lozim. Bundan tashqari, ushbu bosqichda o‘qitiladigan geometriya fani o‘quvchilardagi alohida xususiyatlarning shakllanishiga va kelajakdagi o‘z faoliyatini belgilab olishiga yordam beradi. Aynan shu bosqichda o‘qitiladigan geometriya fanlararo aloqalarni va atrof olamni o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

Navbatdagi bosqichda o‘qish umumiy o‘rta ta‘lim maktablari eki akademik litseylarda davom ettirilgani sababli har bir holda o‘z xususiyatidan kelib chiqib adabiyot tanlanadi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida geometriya kursi ikki asosiy kursdan–yassi figuralarni va ularning xossasini o‘rganuvchi–planimetriya va fazoviy figuralar va ularning xossalarini o‘rganuvchi–stereometriya kurslaridan iborat. Ma‘lumki, ko‘p yillardan beri geometriya kursi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida an‘anaviy usulda, ya‘ni avval tekislikda geometriya elementlari, so‘ngra fazoda geometriya elementlari o‘rganib kelingan. Maktab geometriya kursining bunday qurilishining ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor.

Salbiy tomonlari quyidagilardan iborat:

-geometriya ko'rgazmalilikka tayangan fan bo'lib, u inson tajribasining ortishi, atrof olamni kuzatishi natijasida o'rganilishi mumkin bo'lib, bu narsalarning ko'pchiligi fazoda o'rganiladi hamda planimetriya va streometriya kurslarini alohida o'rganishda qaytarilishlar bo'ladi;

-tekislikda va fazoda figuralar xossalari alohida o'rganishda o'quvchi geometriya fanining ob'ektiv qonuniyatlariga asoslanganligini ko'ra olmaydi, o'quvchi nazarida planimetriya va stereometriya ikki xil fandek tuyulib qolishi mumkin;

-planimetriyani hayotga tatbiq qilish sun'iy va imkoniyati cheklangan, bunga geometriya fanining atrof olam bilan bog'liqligi etarli darajada aks etmaydi;

-hozirgi sharoitda umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari o'qishni turli yo'nalishlarda davom ettirayotganliklari sababli fazoviy figuralarning atrof olamdagi amaliy hayotga doir ma'lumotlarga ega bo'lmasliklariga olib keladi.

Geometriya fanini an'anaviy o'qitishning ijobiy tomonlari.

-geometriya kursini o'qitishda planimetriya va stereometriya kurslari birgalikda olib borilganda o'quvchilar uchun fazoviy ob'ektlarni tasavvur qilish qiyinroq bo'lishi mumkin;

-geometriya fanini alohida ikkiga bo'lib o'qitilishi uzoq muddatga mo'ljallanganligi sababli sustroq qabul qiladigan o'quvchilarning ham o'zlashtirish imkoni bo'ladi;

-yassi va fazoviy figuralarni birgalikda o'qitilishi ularning o'zaro joylashishida ko'pgina imkoniyatlar yaratishi bilan birgalikda o'quvchilarning ma'lumotlarni qabul qilishida qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin [2].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, maktab geometriya kursining manbaida aksiomatik metoddan, vektorlar va koordinatalar metodidan, matematik tahlil metodidan foydalanib bayon qilish saqlanib kelmoqda. Ma'lumki, o'rta maktablarda matematika fanini o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil orqali belgilanadi:

-matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi;

-matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi;

-matematika o'qitishning amaliy maqsadi.

Yuqorida keltirilgan omillardan kelib chiqqan holda darsliklar bir biridan qaysi uslubda bayon qilinishi bilan farq qilgan holda, umuman geometriya fanini o'qitishdan asosiy maqsad quyidagilardir:

-geometrik faktlarni sistemali ravishda o'qitish, ularni tatbiq qilish va natija olish;

-o'quvchilarda egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay oladigan ko'nikma va malakani rivojlantirish;

-o'quvchilarda fazoviy tasavvurni va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.

Yuqorida keltirilgan tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, geometriya elementlari mavjud adabiyotlarning ko‘pchiligida tekislikda va fazoda alohida alohida bayon qilingan [4].

Xulosa qilib aytish mumkin-ki, umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarining geometriyadan o‘quv faoliyatini yanada takomillashtirish, o‘quvchilarning imkoniyat va talab ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta‘lim berish, ularning bilim darajasini davlat va jamiyat talablari asosida rivojlantirishga erishish uchun geometriyani o‘qitish jarayonida kursni o‘qitish metodikasini takomillashtirishni muayyan tamoyillar asosida tashkil etish zaruriyatini ta’kidlash kerakdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akmalov A.A., **Raxmonov A.U.** Umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarining geometriyadan o‘quv faoliyatini tashkil etish innovasion metodik xususiyatlari, Fan va texnologiyalar universiteti “Raqamli texnologiyalar asosida ta‘lim jarayonini takomillashtirish” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2025-yil 11-noyabr, Toshkent, 83-85 bb.
2. Geometriya 7-sinf : darslik / B. Xaydarov, N. Tashtemirova, I. Asrorov - Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022. - 192 b.
3. Akmalov A., Abduvaxobov D.A. Boshlang‘ich professional ta‘limda matematikani kasbga yo‘naltirib o‘qitishning ahamiyati Fizika, matematika va informatika, Ilmiy-uslubiy jurnal, Toshkent - 2023 y., 5-son, 3-8 bet
4. Akmalov A., Abduvaxobov D.A. Description of a profession-oriented issue in mathematics education The scientific heritage No 124 (2023). DOI: [10.5281/zenodo.10077598](https://doi.org/10.5281/zenodo.10077598), 28-31 page.